

O‘QUVCHILARDA KITOB O‘QISHGA QIZIQISHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

M. S. Usmonova- Jizzax davlat pedagogika universiteti

Umumiy psixologiya kafedrası stajyor o‘qituvchisi,

Ochilov Aziza I bosqich talabasi,

Ergasheva Dilnura I bosqich talabasi

usmonovamunira096@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarini kitob mutoalaga qiziqtirish, kitob orqali ilkmiiy salohiyatni oshirish davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biri ekanligi, yoshlarning kitob o‘qishga pedagogik-psixologik bilim, ko‘nikma, malakalar masalalari borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kitobga yo‘naltirish, axloqiy salohiyat, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, ilmiylik.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev takidlaganidek “Bugungi kunda mamlakatimizda o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayoniga alohida e’tibor berilmoqda. O‘shib kelayotgan yoshavlodning ta’lim olishi konstitutsiyada ham keltirilgan”[1].

“Bolaning ta’limi, tarbiyasi va taraqqiyotida kitob katta rol o‘ynaydi. O‘quvchilarni kitob bilan ishlashning oqilona usullari bilan qurollantirmasdan muvaffaqiyatli ta’lim berish mumkin emas. Chunki bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash, nafaqat o‘qituvchi yordamida amalga oshiriladi, balki mustaqil ravishda turli badiiy manbalarni o‘rganish jarayonida ham amalga oshadi.”[2]

Barchamiz yaxshi bilamizki, kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o‘z farzandining baxtu saodati, fazlu kamolini ko‘rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi. Bola tug‘ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an‘analar, qadriyatlar, urf-odatlar bolani shaxs sifatida shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joiz, ota-ona farzandlarida kitobga muhabbatni, kitobsevarlikni ham tarbiyalashi lozim. Mana shuning uchun ham bugungi kunda biz bu masalaga jiddiy e’tibor bermoqdamiz. Tarbiya sohasi islohoti bugungi eng muhim va ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda.

Buni chuqur anglab yetgan davlat bugun unib-o‘shib kelayotgan farzandlarining har tomonlama barakamol avlod bo‘lib, hayotga kirib borishini o‘zi uchun eng ulug‘, kerak bo‘lsa, eng muqaddas deb biladi. Shaxs kamolotini ta’minlaydigan, asosiy mexanizmlar sirasiga kiradigan ijtimoiy muhit, ta’limtarbiya, irsiy xususiyatlarni kiritish mumkin. Shuningdek, psixologik nuqtai nazardan, bola shaxs shakllanishida intellektual sohaning rivojlanganligi muhim hisoblanadi. Shu bois, kichik maktab yoshidagi bolalarda kitob o‘qishga qiziqishni shakllantirish lozim.

Qiziqish - shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati. Bunda insonning o'ziga xos xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o'zlashtirishda, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda qo'l keladi, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishiga yordam beradi. Qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbai vazifasini bajaradi[3].

O'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish muhim ilmiy va pedagogikmuammodir. Uning dolzarbligi nutqning inson hayotidagi mutlaqo muttasil o'sibborayotgan roli bilan bog'liq bo'lib, u universal aloqa vositasi, intellektual qudratlikanal bo'lib xizmat qiladi, keng ma'noda, shaxsning ma'naviy shakllanishi, har birinsonning ijtimoiy faolligi uchun zarur shartdir[7].

Yuksak tafakkur namoyondalarining asarlarida bilim olishga keng o'rin berilgan bo'lib, o'tmishda ham, hozirda ham, qaerda ta'lim sohasiga e'tibor yuqori bo'lsa, o'sha yerda taraqqiyot doimo ilgarilab borilganligi yaqqol ko'rinadi. Qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning [8] fikricha, inson tafakkuri, aqlining kuchi bir necha bosqichdan iborat. Aqliy kuchlar dastlab mutlaq tinch, sokin holatda bo'ladi. Bolalardagi yozishni, o'qishni o'rganishdagi potentsial kuchlar shunga misol bo'la oladi. Abu Ali ibn Sino bu kuchlarni moddiy kuchlar deb nomlagan, ya'ni mazkur kuchlarni tashqi motivlar deb tushunsa bo'ladi. Sekinastalik bilan bu kuchlar harakatga aylanadi, bular mehnat quroli samarasidir, ya'ni mehnat quroli orqali harakatga keladi va namoyon bo'ladi. Bu holatni bola yozishni xohlab turibdi-yu, ammo yozish quroli bo'lgan qalamning yo'qligi bilan izohlash mumkin. Bu ikki kuchni Ibn Sino ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan kuch deb atagan. Nihoyat, uchinchi kuch esa irodaning yetishmasligi bilan tushuntirib beriladi. Ya'ni shunday holatning kuchi bor, ammo uni ishlatishga, ro'yobga chiqarishga bolada iroda yetishmaydi. Alloma nazarida shu kabi uch holat bilan aql, bilim olish izohlanadi. "Tayr" asarida esa insonlarni do'stlikka, bilim o'rganishga chaqiradi [8].

Ibn Sinoning "Xayy ibn Yaqzon" qissasida fe'l-atvorini, ruhiyatini tushunish uchun mantiq ilmini o'rganishga chorlaydi. Bu fan inson tafakkur doirasini kengayishiga katta yordam beradi. Insonlarni fe'l-atvorini bilish uchun o'qish, o'tkir bo'lish uchun farosat ilmidan xabardor bo'lish kerak. Darhaqiqat, ilm o'rganishga Forobiy musiqiy, falsafiy ilm bilan da'vat etgan bo'lsa, Ibn Sino mantiq ilmi orqali da'vat etgan.

Abu Ali ibn Sino bolalarning o'qish, ta'lim olishlariga ma'suliyat bilan qarash tarafdorlaridan bo'lgan. U bola 6 yoshga yetgach muallimga bilim olish uchun to'shirilishini aytib o'tadi. Hozirda ham bolalarni 6, 7 yoshdan boshlang'ich sinflarga qabul qilinishi ibn Sinoning o'sha davrdagi g'oyalarining naqadar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi, zotan ushbu hollar bolani o'qishga bo'lgan muhabbatini kuchaytirishi mumkin. Uning fikricha, bolaga ta'lim astasekinlik bilan berilishi joiz. Uni birdaniga kitobga bog'lab qo'ymaslik lozim, deydi. Ibn Sino kishilarni yashashga qobiliyatli bo'lishi uchun va bekorga jabr ko'rmasligi uchun ularga ehtiyot bo'lib ta'lim berish kerakligini uqtiradi. Ya'ni ularning

o'qishga bo'lgan ijobiy motivlarni so'ndirmaslikka undaydi [8]. Ilm kishi zihnini, fikrini qilich kabi o'tkir qiladi. Ilmsiz inson mevasiz daraxtga o'xshaydi. Ilm daraxt mevalaridek har shaxsga ozuqa berib, madaniyat insoniyat ma'rifat dunyosiga olib kiradi. Yomon odamlardan, buzuq ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulqli va odobli bo'lishga xizmat qiladi. Natijada, ilm kishilari har yerda aziz va hurmatli bo'ladilar. Kishi hayotidagi ishlarini haqiqiy to'g'ri yo'lga soladigan vosita bu ilmdir. Shuning uchun ham xalq orasida ilm orqali oliy fazilatlarga ega bo'lgan ulug'likka va orzu-istaklarga erishgan buyuk kishilar qadrlanadilar. Ilm kasb va fazilatlarning eng afzalidir. Ilm orqali yaxshi-yomonni tanish, halol-xaromning farqiga borish, do'stlik va qarindosh-urug'ning fazilatlarini anglash, inson o'z haq-huquqlarini bilishi mumkin. Kishilarning bilimi, ilmi, amaliy malakalari rivojisiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Muayyan ma'naviy ehtiyojlarga axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan kishilardan ilm-fanni o'rganishga, halol mehnat qilib, kasb-hunarni egallashga, malaka oshirishga ishtiyoq ham bo'lmaydi. Shu sababli jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida avval yoshlarni tarbiyalab, keyin ularga ta'lim berganlar. Haqiqatdan ham, bilimga, ilmga ehtiyoj anglangan motivlar tizimidir. Biror muammoni hal etish imkoniyatlarini inson o'z aql-zakovati, bilimi, kuchi va irodasi bilan aniqlaydi. Bilim mazmun jihatidan kengroq bo'lib, insonning hayot tajribasi orqali orttirgan barcha tushunchalar, fikrlar, amaliy malakalarni o'z ichiga oladi. Ilm bilimning cho'qqisidir. Bilimlar tabiat, jamiyat, inson ruhiyati qonunlarini chuqur o'rganish natijasidagina ilmga aylanadi [8].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Sharq mutafakkirlari kitobdan bilim, ilm olishni ehtiyojlar nuqtai nazaridan tahlil qilishga harakat qilganlar. Mazkur ehtiyojlarni paydo qilish, kuchaytirish, asosan o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonining psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish, ya'ni o'qish jarayonida bolalarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, ularga imkon qadar individual yondashish orqali erishish mumkinligini e'tirof etishgan. Shu bilan birga Sharq mutafakkirlarining buyuk xazinasini, bolalarga ta'lim, tarbiya berishdagi ilg'or fikrlari hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Biz ularning ilg'or fikrlaridan tadqiqotimizda metodologik asos sifatida foydalandik.

Kitob o'qishga qiziqish muammosining psixologlar tomonidan o'rganilishi

Hammamiz kitob o'qishning foydali ekanligini eshitganmiz. Lekin uning foydaliligi aynan nimada? Bu haqda psixologlar quyidagilarni ta'kidlaydi.

1. Kitob o'qish uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi. Xotirjam bo'lish va uxlashga yordam beradigan eng yaxshi usul kitob o'qishdir. Televizor yoki telefondan tarqalayotgan yorqin nur miyaga uyg'onish kerakligi haqida signal yuboradi. Kitob o'qish esa aksincha ta'sir ko'rsatadi – miya uxlash vaqti bo'lganligini tushunadi.

2. Kitob o'qish asabni tinchlantiradi. Asabingizni tinchlantirish uchun sayr qilish yoki musiqa tinglashni afzal ko'rasizmi? Sasseks universiteti olimlari esa buning o'rniga kitob o'qishni tavsiya qilishadi. Kitob o'qish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan. Atigi olti daqiqa kitob o'qish asabiylashishga barham beradi.

3. Kitob o'qish qalbni yumshatadi. Kitob o'qish jarayonida o'quvchi qahramonlar bilan birga bo'ladi. Ularning quvonch va tashvishlariga sherik bo'ladi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, badiiy asar o'qigan odam hayotda ham boshqalarning his-tuyg'ularini yaxshi tushunar ekan.

4. Kitob o'qish miya faoliyatini yaxshilaydi. Emori universiteti olimlari kitob o'qigan insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo'lishini isbotlashdi. Tadqiqot mualliflari kitob o'qish miyadagi asab tolalari sonini oshirishini ta'kidlashmoqda.

5. Kitob o'qish tushkunlikka qarshi kurashishga yordam beradi. SHotlandiyalik olimlarning tadqiqotlariga qaraganda, kitob o'qish tushkunlikni davolashning eng samarali vositasidir. Tushkunlikka chalingan bemorlar kitob o'qishni boshlaganlaridan so'ng ularning tushkunlikka tushish holatlari kamaygan.

6. Kitob o'qish insonni go'zallashtiradi. Yuqori darajadagi aqliy salohiyat insonning tashqi ko'rinishini ham go'zallashtiradi. Har qanday mavzuda qiziqarli suhbat qura olish va o'z bilimini namoyish etish suhbatdoshining mehrini qozonishga yordam beradi.

7. Kitob o'qish xotirani va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi. Har safar kitob o'qilganida miya faol ishlaydi. U olinayotgan ma'lumotni saqlash uchun yangi tolalarni yaratadi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, doimiy ravishda kitob o'qiydigan insonlarda fikrlash qobiliyati boshqalarga nisbatan sekinroq pasayar ekan.

8. Kitob o'qish hayotdagi maqsadini anglashga va qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Ogayo shtati universiteti olimlari inson qancha ko'p kitob o'qisa, hayot yo'lini shunchalik aniq tanlashini ta'kidlashmoqda. Kitob o'qish hayotdagi to'siqlarni yengishga ham yordam beradi, deyishmoqda ular.

9. Kitob o'qish so'z boyligini oshiradi. Kitob o'qiyotgan paytda notanish so'zlar ham uchrab qoladi. Ularning ma'nosini umumiy mazmuni orqali ham tushunib olsa bo'ladi. Kitob o'qish nafaqat so'z boyligini ko'paytiradi, balki umumiy savodxonlikni ham oshiradi.

10. Kitob o'qiydigan insonlar hayotda faol bo'lishadi. San'at milliy jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar kitob o'qiydigan insonlar madaniy va ijtimoiy hayotda ham faol bo'lishlarini isbotladi.

11. Kitob o'qish yozuvchilik qobiliyatini rivojlantiradi. Kitob o'qish jarayonida muallifning yozish uslubi ham o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi. Musiqa tinglash jarayonida musiqachining uslubi tinglovchiga o'tgani singari yozuvchining uslubi ham o'quvchining yozish uslubiga ta'sir o'tkazadi.

12. Kitob o'qish Alg'sgeymer xastaligiga chalinishning oldini oladi. Qator tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ko'p kitob o'qigan insonlar

Alg'sgeymer kasalligiga kamroq chalinishar ekan. Miya ham xuddi boshqa a'zolar singari qo'llab-quvvatlashga va mashqlar yordamida mustahkamlanishga muhtoj bo'ladi. Kitob o'qish esa bu borada eng samarali usuldir.

13. Kitob o'qish chet tilini o'rganishni osonlashtiradi. Doimiy ravishda kitob o'qish boshqa tillarni o'rganishda yangi so'zlarni oson tushunishga va yodda saqlab qolishga yordam beradi.

14. Kitob o'qish ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Obafemi Avolau universiteti pedagoglari boshlang'ich sinf o'quvchilarining mashg'ulotlariga mavzuli komikslarni kiritishganida, suratlar va so'zlar aralashmasi bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishini aniqlashdi. Kitoblar kattalarga ham ana shunday ta'sir ko'rsatadi.

15. Kitob o'qish moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, umuman kitob o'qimaydigan insonlarning 43 foizi qashshoqlikda yashaydi. Savodli insonlar orasida esa qashshoqlikda yashaydiganlar 4 foizni tashkil etadi.

16. Birgalikda kitob o'qish ota-onalar va bolalarning o'zaro munosabatlarini yaxshilaydi. Psixologlar birgalikda kitob o'qish jarayonida ota-onalar va bolalar o'rtasida o'ziga xos munosabat o'rnatiladi deb hisoblashadi. Ularning aytishlaricha, bunday munosabat birgalikda televizor ko'rganda also paydo bo'lmaydi.

17. Ko'p kitob o'qiydigan bolalar darslarni yaxshi o'zlashtirishadi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, kitob o'qishni xush ko'radigan bolalar maktabda ham yaxshi o'qishadi. Ular grammatikani ham, matematikani ham yaxshi o'zlashtirishadi.

18. Kitob o'qish jinoyatchilikning oldini oladi. O'tkazilgan tadqiqotdan ma'lum bo'lishicha, panjara ortida savodxonligini oshirgan jinoyatchilar ozodlikka chiqqanlaridan so'ng boshqa jinoyatchilarga nisbatan jinoyatga 30 foiz kamroq qo'l uradilar.

19. Kitob o'qish tinglash qobiliyatini rivojlantiradi. Qanchalik g'alati tuyulmasin, kitob o'qish tinglash qobiliyatini oshiradi, boshqalarni oson tushunishga yordam beradi. Bu ayniqsa, kitobni ovoz chiqarib o'qiganda yanada samarali bo'ladi.

20. Kitob o'qish yaxshi hikoyago'ya aylantiradi. Inson kitobni qancha ko'p o'qisa, hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi. Keraksiz gaplarni kamroq gapirib, keraklilarini yaxshiroq yetkazadigan bo'ladi.

21. Kitob o'qish yaxshilik qilishga undaydi. Faol kitobxonlar xayriya ishlari bilan boshqalarga nisbatan uch marta ko'proq shug'ullanishadi. Kitob o'qish muhtoj insonlarga yordam qo'lini cho'zishga undaydi.

Shunday qilib, kitob o'qishning inson hayotida ahamiyati beqiyos ekanligini hisobga olib, o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirishimiz maqsadga muvofiq.

O'qishga bo'lgan qiziqishni ilmiy tadqiqotlar sifatida o'rganish rus olimlari ishlarida kuzatiladi. Uning dolzarbligi nutqning inson hayotidagi mutlaqo muttasil o'sib borayotgan roli bilan bog'liq bo'lib, u universal aloqa vositasi, intellektual

qudratli kanal bo'lib xizmat qiladi, keng ma'noda, shaxsning ma'naviy shakllanishi, har bir insonning ijtimoiy faolligi uchun zarur shartdir.

Bolalarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirishning psixologik xususiyatlarining nazariy tahlilidan shunday xulosaga kelindi:

1. Kitob o'qishga qiziqish shaxs shakllanishidagi muhim jihatlaridan biri bo'lib, bu masala bevosita bola shaxsida bilish jarayonlari rivojlanishi, xulqiy va hissiy tomonlari bilan bog'liqligi qadimdan o'rganilgan va Sharq mutaffakirlari asarlarida keng tadqiq qilingan;

2. Kitob o'qish, mutoala qilish bu inson faoliyatining boshqa turlari kabi muhim hisoblanib, uni maqsadga yo'nalganlik va predmetli motiv kabi tavsiflanuvchi, o'zida: mo'ljal olish, rejalashtirish, nutqiy planga o'tkazish, nazorat kabi bir nechta bosqichlarni qamrab olganligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'z.RVazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Res'ublikasi prezidenti nutqi. //Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil 16 yanvar №11.

2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.

3.O'zbekiston Res'ublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Res'ublikasi prezidentining farmoni. O'zbekiston Res'ublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil. 6-son,70-modda.

4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 224 b.

5. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 96 b. rsixologiyasi. – Toshkent, 2000. – 19 b.

6. Jo'raev N.S. O'quv motivlarini shakllantirish. – Toshkent: TDZU, 2008. – 62 b.

8. Ibn Sino. Falsafiy qissalar. – Toshkent: O'qituvchi, 1963. - 48 b.

9.Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).

10.Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).

11.Usmonova, M. (2023). O 'SMIRLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI HAQIDA. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(3).

12.Usmonova, M. (2023). MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TALABLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(3), 152-155.

13.Shakarboyeva, S. (2022). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(2).

14.Shakarboyeva, S. (2021). БЎЛҒУСИ ПЕДАГОГЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1).

15.Шакарбоева, Ш. А. (2021). САМОРАЗВИТИЕ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ПРЕДМЕТ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ. In *Стратегия научно-технологического развития-2021* (pp. 39-40).

16.Шакарбоева, Ш. А. ПЕДАГОГИКА & ПСИХОЛОГИЯ. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. *ПЕДАГОГИКА*, (1), 61-64.

17.O'risheva, P. (2024). O'SMIR XULQ-ATVORIDAGI SALBIY O'ZGARISHLAR. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 161-167. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9559>

18.И.А.Хасанова. (2022). КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ТАФАККУР ЖАРАЁНЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРИНИНГ ЎРНИ. EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(12), 186–190. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7339056>

19.Hasanova, I. A (2022). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHINING OLDINI OLIHDA RUHIY TARBIYA USULLARIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7452>

20.Hasanova, I. (2024). IRODA VA UNING TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 168-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9560>

21.Hasanova, I. (2024). IRODA VA UNING TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 168-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9560>

22.Hasanova, I. (2024). O'QUVCHILAR TAFAKKURINING RIVOJLANISHIDA TA'LIMNING O'RNI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 174-180. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9561>

23.Shakarboyeva, & O'ktamova , O. (2024). TARBIYASI OG'IR O'SMIRLARNI IJTIMOIYLASHTIRISHDA OILA, MAHALLA, TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIKLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 139-147. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9555>

24.Shakarboyeva, & Qayumov, A. (2024). AUTIZMLI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA ART TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONYATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 148-154. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9556>

25.O'risheva, P. (2024). O'SMIR XULQ-ATVORIDAGI SALBIY O'ZGARISHLAR. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 161-167. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9559>

26.Shakarboyeva, & Жасурова, Н. (2024). ЎСМИРЛАРДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8831>

27.Shakarboyeva. (2024). O'SMIRLIK DAVRIDAGI SUITSIDNING KELIB CHIQUISH SABABLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8726>

28.Shakarboyeva, & Худойкулова , Г. (2024). БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ЧЕТ ТИЛИ ЎЗЛАШТИРИШ ВА ЎРГАНИШНИНГ ЁШГА ОИД ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8832>

39.O'risheva, P., & Jiyanberdiyev, M. (2023). PSIXOLOGIYA FANLARINI OQITISH JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AXAMIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1).

30.O'risheva, P. (2023). SHAXS TOLERANTLIK XUSUSIYATININI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (I).

31.O'risheva, P. (2022). THE DEVELOPMENT PROCESS OF A CHILD'S SELF-CONCEPTION AND MOTIVATION AREA. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6).

32.Ўришева, П. (2022). РОЛЬ МУЛЬТМИДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(12), 559-562.

33.QIZI, O. R. P. G. A. (2022). ILK O ‘SPIRIN YOSHIDA PSIXOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(1), 32-36.

34.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSH OILALARNING IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 85-90. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9547>

35.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MUAMMOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 119-125. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9552>

36.Iroda, X. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF LEADERSHIP. *World Bulletin of Management and Law*, 21, 16-18.